



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING QARORI

Namangan sh. Istiqlol ko'chasi 57.

2022 - yil 18 - yanvar

40-6-0-Q/22

Namangan viloyati hokimligi

Namangan viloyatida 2022-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-yil, 15-son, 186-modda) hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi 1993-yil, 9-son, 320-modda) 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan 2021-yil 30-dekabrda kelishilgan qo'shma kelishuvga asosan Namangan viloyatida 2022-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 1 kv.metr maydonga ijara to'lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga hamda Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Bo'sh turgan ob'ektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasi(Sh.Kosimov)ga qisqa muddatda viloyatdagi davlat tasarrufida bo'lgan ko'chmas mulk ob'ektlarini ijaraga berish yuzasidan avval tuzilgan ijara shartnomalariga mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, tegishli o'zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

3. Shahar va tumanlar hokimliklariga hududlardagi davlat tashkilotlari va mahalla fuqarolar yig'inlari bilan birgalikda balanslarida bo'lgan, foydalanilmay bo'sh turgan mulklardan samarali foydalanish, ularni ijaraga berish yuzasidan Bo'sh turgan ob'ektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasiga doimiy taklif va ma'lumotlar kiritib borish vazifalari topshirilsin.

4. Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (R.Isroilov), viloyat kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi (B.Tojimatov), viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (A.Iminov), viloyat Madaniyat boshqarmasi (K.Siddiqov), shuningdek davlat mulkini balansida saqlovchi barcha muassasa va tashkilotlar rahbarlariga:

yil choragida kamida bir marta o'zining yuritishida bo'lgan davlat mulkini xatlovdan o'tkazish va foydalanilmayotgan davlat mulki aniqlangan taqdirda 10 kun mobaynida Bo'sh turgan ob'ektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasiga tegishli ma'lumotlarni taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Viloyat hokimligining matbuot va axborot boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, "Namangan haqiqati" va "Namanganskaya pravda" gazetalariga Davlat aktivlarini boshqarish viloyat hududiy boshqarmasi hamda Bo'sh turgan ob'ektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Namangan viloyat hududiy boshqarmasining takliflari asosida viloyatdagi bo'sh turgan, ijaraga beriladigan davlat tasarrufidagi ob'ektlar ro'yxatini ommaviy axborot vositalari orqali bepul yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Namangan viloyati hokimining 2021-yil 20-yanvardagi 35-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror "Namangan haqiqati" va "Namanganskaya pravda" gazetalarida e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari T.Yusupov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



Sh.Abdurazakov

Наманган вилоят ҳокимининг
2022 йил 18 январдаги
40-6-0-Q/22-сон қарорига
1-илова

**Namangan viloyatida 2022-yilda davlat ko‘chmas mulkidan
foydalanish uchun 1 kv. metr maydonga ijara to‘lovining
eng kam stavkalari**

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadlari	1 kv. metr maydon uchun 2022-yilda yillik eng kam ijara to‘lovi stavkasi (QQS bilan) <i>so‘mda</i>	
		Namangan shahrida	Tumanlarda
Ishlab chiqarish			
1	Yoqilg‘i ishlab chiqarish	10 400	7 600
2	Kimyoviy ishlab chiqarish	10 400	7 600
3	Neft-kimyxo sanoati	10 400	7 600
4	Mashinasozlik	10 400	7 600
5	Dastgoxsozlik va asbobsozlik sanoati	10 400	7 600
6	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	10 400	7 600
7	Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi	8 500	6 300
8	Qurilish, yo‘l va kommunal muxandislik	8 500	6 300
9	Engil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	10 400	6 300
10	Sanitariya va gaz uskunolari va mahsulotlari ishlab chiqarish	10 400	7 600
11	Metall konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati (tokarlik xizmati)	10 400	7 600
12	Mashina va jihozlarni ta‘mirlash	10 400	7 600
13	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	10 400	7 600
O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati			
14	Yog‘och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	10 400	7 600
15	Yog‘ochni qayta ishlash sanoati	10 400	7 600
16	Sellyuloza-qog‘oz mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
17	Deraza va eshiklar, mebel ishlab chiqarish sanoati (yog‘ochdan)	31 300	23 200
18	Qurilish materiallari sanoati	10 400	7 600

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadlari	1 kv. metr maydon uchun 2022-yilda yillik eng kam ijara to'lovi stavkasi (QQS bilan) so'mda	
		Namangan shahrida	Tumanlarda
Yengil sanoat			
19	To'qimachilik sanoati	10 400	7 600
20	Tikuvchilik sanoati	10 400	7 600
21	Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
22	Engil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	10 400	7 600
Oziq-ovqat sanoati			
23	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	10 400	7 600
24	Go'sht va sut mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
25	Baliq mahsulotlari sanoati	10 400	7 600
26	Tegirmonchilik sanoati	10 400	7 600
27	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	8 500	6 300
28	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	10 400	7 600
Sanoatning boshqa tarmoqlari			
29	Tibbiyot sanoati	10 400	7 600
30	Poligrafiya sanoati	25 400	21 800
31	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	12 700	9 300
32	Sanoatni xo'jalik boshqaruvi	29 300	21 800
Qishloq xo'jaligi			
33	O'simlikshunoslik (shu jumladan issiqxona xo'jaligi) 1 ga yer maydoni uchun	4 172 400	3 094 900
34	Chorvachilik va parrandachilik	5 000	3 800
35	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gaktar uchun	4 172 400	3 094 900
36	Asalarichilik 1gektar yer maydoni uchun	2 712 500	2 011 900
37	Veterinariya xizmatlari	10 400	7 600
38	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	10 400	7 600

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadlari	1 kv. metr maydon uchun 2022-yilda yillik eng kam ijara to'lovi stavkasi (QQS bilan) <i>so'mda</i>	
		Namangan shahrida	Tumanlarda
39	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	4 172 400	3 094 900
Transport va aloqa			
40	Er ustida harakatlanuvchi umumfoydalanishdagi temir yo'l transporti	10 400	7 600
41	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	10 400	7 600
42	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	2 650	2 100
43	Avtomobillar yuvish	33 500	21 900
44	Avtomobillarga yonilg'i quyish	33 500	28 200
45	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	18 800	14 100
46	Pochta aloqasi	10 400	7 600
47	Kur'erlik aloqasi	20 900	15 400
48	Elektr-simli aloqa	20 900	15 400
49	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda xudud doirasida)	87 700	65 100
Qurilish			
50	Qurilish	10 400	7 600
51	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	10 400	7 600
52	Plastik deraza va eshiklar ishlab chiqarish	61 400	36 500
Savdo va umumiy ovqatlanish			
53	Ulgurji savdo	29 300	21 800
54	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi do'konlar	75 100	55 600
55	Chakana savdo	29 300	21 800
56	Umumiy ovqatlanish	29 300	21 800
57	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish (fast fud)	45 800	31 400
58	Kitob do'konlari	4 100	3 200
59	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	29 300	21 800

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadlari	1 kv. metr maydon uchun 2022-yilda yillik eng kam ijara to'lovi stavkasi (QQS bilan) <i>so'mda</i>	
		Namangan shahrida	Tumanlarda
60	Xalq xo'jaligi savdo-xarid mahsulotlari dallollik xizmatlari	45 800	34 000
61	Moddiy texnika ta'minoti va yetkazib berish	29 300	21 800
62	Ma'lumot-hisoblash xizmatlari	29 300	21 800
63	Internet va komp'yuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish	29 300	21 800
64	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	29 300	21 800
65	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	29 300	21 800
66	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatlar	29 300	21 800
67	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	52 200	38 600
68	Tahririyat va nashriyotlar	16 800	12 400
69	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	16 800	12 400
70	Turarjoy-kommunal xo'jaliklari	16 800	12 400
71	Mehmonxona xo'jaligi	33 400	24 700
72	Umumiy yashash joylari	26 000	18 900
73	Ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan maishiy xizmat ko'rsatish shahobchasi	16 800	12 400
74	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta'mirlash	25 200	18 900
75	Lombardlar	37 800	28 000
76	Xammomlar	50 300	37 300
77	Saunalar va basseynlar	100 200	74 400
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot			
78	Sog'liqni saqlash	20 900	15 400
79	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	20 900	15 400
80	Fitobar	14 500	10 700
81	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	33 400	24 700

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadlari	1 kv. metr maydon uchun 2022-yilda yillik eng kam ijara to'lovi stavkasi (QQS bilan) <i>so'mda</i>	
		Namangan shahrida	Tumanlarda
82	Jismoniy tarbiya va sport	10 400	7 600
83	Dorixonalar	16 800	12 400
84	Optika, tibbiyot anjomlari va jixozlar do'konlari	35 200	19 600
85	Ijtimoiy-dorixonalar	14 900	10 000
Ta'lim			
86	Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash (o'quv kurslari bilan)	16 800	12 400
87	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	13 100	10 100
88	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	8 500	6 300
89	O'quv muassasalarida umumiy ovqatlanish	10 400	7 600
90	Maktabgacha ta'lim muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	7 400	5 800
91	Madaniyat va san'at	29 300	21 800
92	Ko'rgazmalar	22 600	17 500
93	Maktabdan tashqari tarbiya	8 500	6 300
94	Madaniyat va dam olish bog'lari	20 900	15 400
95	Botanika bog'lari va zooparklar	20 900	15 400
96	Televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari	20 900	15 400
97	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	33 400	24 700
98	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	12 700	9 300
99	Avtomaktablar	18 600	11 000
Moliya-kredit faoliyati			
100	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	29 300	21 800
101	Auditorlik faoliyati	29 300	20 400
102	Bank faoliyati	29 300	21 800
Faoliyatning boshqa turlari			
103	Sug'urta va notarial xizmatlar	29 300	21 800

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadlari	1 kv. metr maydon uchun 2022-yilda yillik eng kam ijara to'lovi stavkasi (QQS bilan) so'mda	
		Namangan shahrida	Tumanlarda
104	Sud va yuridik xizmat muassasalari	25 200	18 900
105	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	25 200	18 900
106	Jamoatchilik birlashmalari	8 500	6 100
107	Omborxonalar	29 300	21 800
108	Davlat tashkilotlariga ofis	12 700	9 300
109	Xususiy tashkilotlarga ofis	45 800	34 000
110	Arxiv xizmati	12 700	7 800
111	Engil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (shu jumladan vulkanizatsiya)	33 400	24 700
112	Laboratoriyalar	20 900	15 400
113	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	83 900	62 100
114	Madaniy meros ob'ektlari bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	45 800	34 000
115	Madaniy meros ob'ektlar bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shahobchalari	40 100	29 800
116	Avia kassalar (shu jumladan temiryo'l, avtotransport va boshqalar)	45 800	34 000
117	Bankomatlari	418 100	310 100
118	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	29 300	18 900

Izoh:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.06.2009-yildagi 07/10-41-sonli yig'ilish bayonining 11-bandiga muvofiq, mulk shaklidan qat'iy nazar qishloq vrachlik punktlarida tashkil etiladigan dorixonalarga davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining nol stavkasi qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.11.2012-yildagi

02/1-74-sonli topshirig‘iga asosan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi savdo boshqarmalari yopiq harbiy shaharchalardagi, harbiy qism va muassasalaridagi davlatga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulklarni ijaraga olgan holatlarda ijara to‘lovining nol stavkasi qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2017-yildagi “Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 834-sonli qaroriga asosan klasterlar hududida joylashgan ishlab chiqarish maydonlari O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga a‘zo bo‘lgan yosh tadbirkorlarga korxonalar tashkil topguniga qadar ammo 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ijara haqining nol stavkasi bo‘yicha ijaraga beriladi. Foydalanilmayotgan, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat mulki O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga a‘zo bo‘lgan yosh tadbirkorlarga O‘zbekiston yoshlar ittifoqining shahar hamda tuman kengashlarining iltimosiga ko‘ra 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ijara haqining nol stavkasi bo‘yicha ijaraga beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.09.2017-yildagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ–3271-sonli qarorining 3-bandiga asosan shahar va tumanlarda kitob savdosiga ixtisoslashtirilgan do‘konlarni tashkil etish, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlik sub’ektlariga foydalanilmayotgan davlat mulki ob’ektlari nol stavkada beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.08.2017-yildagi 14/1-1959-sonli topshirig‘iga asosan O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasining tavsiyasiga asosan Olimpiada o‘yinlari g‘oliblari va sovrindorlariga davlat mulklarini, shu jumladan aholi zich hududlarida er maydonlarini sport faoliyatini saqlash sharti bilan xususiy sport muassasalari tashkil qilish uchun davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining nol stavkasi qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.03.2018-yilgi 186-sonli qaroriga hunarmandlar uchun davlat mulki obyektlari uchun ijara to‘lovi belgilangan eng kam to‘lovning 50 foizi miqdorida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2018-yildagi 609-20 sonli topshirig‘iga asosan Mudofa vazirligi balansidagi davlat mulkini

uning tizimidagi unitar korxonalar va boshqa bo‘linmalariga xo‘jalik faoliyatlarini amalga oshirishi, o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlashi uchun binolar, inshootlar, joy, jihozlar, mebel va boshqa mulklardan vaqtincha ijara asosida foydalanganda ijara xaqining nol qiymati belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.03.2018-yilgi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha 2018-2019-yillarga mo‘ljallangan davlat Dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 247-sonli qaroriga muvofiq faoliyat ko‘rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat’i nazar, nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblangan hamda ishchilari sonining uchdan ikki qismi nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga davlat mulki ob’ektlari uchun ijara to‘lovi belgilangan eng kam to‘lovning 50 foizi miqdorida belgilanadi.

Наманган вилоят ҳокимининг
2022 йил 18 январдаги
40-6-0-Q/22-сон қарорига
2-илова

**Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining
eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar**

Ob'ektning joylashgan o'rni va turlari bo'yicha	Qo'llaniladigan koeffitsientlar		
	Namangan shahri	Tuman markazlari	Tuman markaz-laridan boshqa hududlar (qishloq)
1. Ijara ob'ektini xududiy zonalar bo'yicha koeffitsient - (Kz)	1,8	1,6	1,5
1.1. Uyali aloqa qurilma va moslamalari uchun	1,8		
2. Ob'ektning qurilish turi bo'yicha koeffitsient - (Kq)			
- alohida turadigan binolar bo'yicha	1,3	1,2	0,9
- bino ichida va bino yonida qurilganlari bo'yicha	1,0	0,8	
- yarim yerto'la va yerto'la xonalari, cherdak, bolaxona qismlari bo'yicha	0,6	0,6	0,5
- binoning tom qismidagi qurilmalar bo'yicha	0,6		
3. Yondosh hududdagi yer maydondan (texnik maydon, dehqonchilik maqsadida) foydalanilgandagi koeffitsient - (Kh)	0,5		
3.1. Uyali aloqa antennalari egallagan texnik maydonlar uchun	0,6		
4. Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti - (Ko)			
- avtotransport yo'llari, markaziy ko'chalar bo'ylab (aholi gavjum va serqatnov hududlar)	1,2	1,1	0,9
- ikkilamchi avtotransport yo'llari (mahallalar va dahalar ichki ko'chalari, aholi punktining chetki hududlari va ko'chalar bo'ylab)	1,0	0,9	0,8
- binolarning tom qismidagi uyali aloqa antennalari o'rnatilgan qurilmalar uchun	0,6		

- Yer maydoniga o'rnatilgan uyali aloqa, radio, peydjer antenna va boshqa

qurilmalar uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi miqdori antenna tortqich qoziqlari umumiy perimetri bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli qaroriga muvofiq ijara haqining eng kam stavkasi va unga qo'llaniladigan tegishli koeffitsientlar asosida belgilanadi.

- Davlat tashkilotlarining texnik maydonidan foydalanuvchi sub'ektlar uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli qaroriga muvofiq ijara haqining eng kam stavkasi va qurilish turiga ko'ra belgilanadigan (Kq) koeffitsientlarni hisoblanmagan holda belgilanadi.

Bino va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasi) hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$Ts = Es \times Kz \times (Kq + Kh + Ko).$$

Ts-bir yilga bir kv.metr maydon uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi;

Es- bir yilga bir kv.metr maydon uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

Kz- hududiy zonalar koeffitsienti;

Kk-qurilish turi bo'yicha koeffitsient (alohida turgan bino, qo'shimcha qurilgan bino, binoning tom qismi, cherdak, bolaxona, yarim yerto'la, yerto'la);

Kh-tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti;

Ko-tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).